

Course: History of the Eastern and Western philosophy

**Lecture 7: Development of Enlightenment
Philosophy in England**

Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova

ANGLIYADA MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASINING RIVOJI

Ingliz ma'rifatparvarligining panteistik xarakteri.

Jon Toland panteizmida din tanqidi va hurfikrlik g'oyalari rivoji.

Jorj Berklining bilish nazariyasi va mavhumlikni tanqidi.

Devid Yumning sababiyat nazariyasi va o'ziga xos empiritsizmi.

Tayanch so'z va iboralar:

Agnostitsizm, sensualizm, sub'ektivizm, tasavvur, taassurot, deizm.

Darsning maqsadi: XVIII asr ingliz falsafasi bo'yicha atroflicha va chuqur bilimga ega bo'lish; XVIII asr ingliz falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosiy tahlil qilish; XVIII asr ingliz falsafasi bo'yicha talabalarning bilimni kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish ko'nikmalarini Shakllantirish.

Falsafa tarixida Yangi davr G'arb falsafasi alohida o'rin tutadi. Bu davr falsafasi g'oyat murakkab va xilma-xil fikrlarga boy bo'lib, turlicha maktablar va qarashlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda insonlar hayotida, fan taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda misli ko'rilmagan tarixiy voqealar bo'ldi. Bular barchasi insonning dunyoga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, dunyoni Yangicha chuqurroq o'rganish va bilimni hayotga tatbiq qilishga undadi. Ayni vaqtda insonning tutgan o'rmini, mohiyatini, o'zligini va ichki dunyosini to'laroq o'rganishga imkon yaratildi.

Jon Toland 30 noyabr 1670 yil – Shimoliy Irlandiyaning Londonderri shahri yaqinida tug'ilgan. Ko'r-ko'rona e'tiqod va irimchilikka qat'iy rioya qilinadigan oilaviy sharoitda tarbiyalanadi. Bunday tarbiya Tolandda dinga qarshi ziddiyatni uyg'otadi va unda hurfikrlikni shakllantirishga yordam beradi. Toland bilimni Anliya, Shotlandiya, Gollandiya universitetlarida oladi. Falsafa, ilohiyot gumanitar fanlarga va qadimiy tillarga qiziqadi, mustaqil ravishda jiddiy Shug'ullanadi. Asosiy yevropa tillarini ham yaxshi biladi. 1701-1702 yillarda Germaniya va Gannoverga sayohat qiladi. U yerda Leybnits bilan tanishadi. Berlinga boradi. 1707-1710 yillarda Germaniya, Vena, Praga va Gollandiyaga

boradi. Gaagada 2 yil yashaydi. Angliyaga qaytib keladi. Hayotining soʻnggi yillarida muhtojlikda yashaydi. Uyini sotib, bir duradgor doʻstining uyida (Londonning Putney Shahri yaqinida) ijarada yashaydi. 1722 yilda 11 martda vafot etadi.

Asarlari: “Levitlar qabilasi” (pamflet) (1691)– ruhoniylarning faoliyati tanqid qilinadi. “Sirsiz xristianlik” – mashhurlik olib keldi, lekin din arboblari tomonidan qattiq tazyiqqa uchraydi va koʻp yillar davomida qizgʻin bahs-munozaraga sabab boʻladi. Sudda jazoga tortiladi va Yoqib yuborilishga hukm chiqariladi. Prussiya qirolichasi Sofiya Sharlottaning taklifiga binoan “Sirenaga maktublar” (1704) yozadi. “Adeisidemon” (1708) – irimchilik, moʻjizalarga ishonch, folbinlik, baShorat qilish qoralanadi. “Nazaryanin” (1718) – ilk xristianlikni iudaizm va islom bilan taqqoslaydi, diniy bagʻrikenglikka chaqiradi. “Tetradimus” (1720) – bu asar 4 falsafiy traktatni oʻz ichiga olgan. “Panteistikon” – materializm va panteizm targʻib qilinadi.

Toland dinni deizm va materializm pozitsiyasidan turib tanqid qiladi; “Sirsiz xristianlik”da mistitsizm, diniy irratsionalizm qarshi chiqadi. Vahe bu tarixiy maʼlumotdir.

Tafakkur va eʼtiqod munosabatini tahlil qiladi. Eʼtiqod – bu haqiqiy bilim, uni mantiqiy asoslanishi zarur. Bunday bilim diniy eʼtiqoddan ustun turadi. Tafakkurga zid narsa moʻjiza emas. Bir tomondan dinni ratsional mazmun bilan toʻldiradi; ikkinchi tomondan xudoni insonga va dunyoga boʻlgan imkoniyatini maksimal darajada chegaralaydi. Ilk xristianlik aqlli va tushunarli din sifatida oʻylab topilgan. Tafakkurga zid boʻlmagan, keyinchalik ruhoniylar tomonidan buzilgan; cherkov xodimlari haqiqiy mohiyatini buzganlar – bu xristianlikning bajariladigan amallari orqali namoyon boʻladi, masalan, choʻqintirish, poklash, choʻqinish, duo oʻqish, iqror boʻlish, butlarga sigʻinish, gunohni soʻrash va h.k. – aynan Shu amallar xristianlikni buzgan.

Toland birinchilardan boʻlib xristianlikning tarixiy evolyusiyasini tahlil qiladi. Dastlab xristianlikka iudaizm, maʼjusiylar elementlari, tushunchalari, antik davr falsafasining tasavurlari (platonizm orqali) kirib qolgan. Xristianlik davlat

dini darajasiga ko'tarilgan sari uning sirlarga aylanishi ham rivojlanadi, chunki ruhoniylar o'z mavqelarini mustahkamlashda ana Shundan foydalanadilar. Ikkinchi sabab xalq ommasining bilimsizligi shunga yo'l ochib bergan.

“Sirenaga maktublar”da – birinchi 3 ta maktubida jonning abadiyligi tanqid qilinadi. 4-5 maktublari falsafiy mazmunda yozilgan; materiya va harakatga bog'ishlangan. Harakat – materiyaning ajralmas xususiyatidir. Materiyaning o'zi passiv va harakatsizdir. Harakat mutloq xarakterga ega, faoldir; o'zgarishlarning sub'ekti va tabiatning turli-tumanligining namoyoni sababidir. Keng ma'noda harakat materiyani harakatlantiruvchi kuchidir; tor ma'noda harakat makonda narsalarning o'rin almashishidir yoki makoniy harakatdir. Toland materiyaning atributiv xarakterini gapirib, Spinozaning ontologiyasini tanqid qiladi. Spinozaning substansiya o'z-o'zini sababi degan ta'limotini yetarlicha tushunib etmaydi. Spinozada substansiyaning atributlari: ko'lam va tafakkurdir, harakat uning modusi. Toland fikriga ko'ra, dunyoviy materiya abadiy to'xtamas harakatda. Materiyani doimiy bir-biriga aylanishi, o'tishi, o'zgarishi – dunyoni kengayishi va kamayishiga olib kelmaydi. Bundan materiya dialektik o'z-o'zidan harakatni asoslaydi. Toland birinchilardan bo'lib materiyaning atributivligini isbotlaydi.

Falsafaning asosiy masalasiga aniq javob bermaydi. Materiya va harakatning yo'qolmasligini asoslaydi. Tolandning materiya bilan deizmning birga mavjud bo'lolmasligini tushunib etadi. Xudo materiyani faol qilib yaratdi, ko'lam ham Shunday.

Makon va zamon materiya bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, harakat bilan ham. Bo'sh makon tushunchasi – yolg'on, o'ylab topilgan narsadir. Nyuton makon to'g'risidagi ta'limotini tanqid qiladi. “Panteistikon”da tafakkurning materialistik talqinini rivojlantiradi. Ong miyaning mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Tabiiy panteizm pozitsiyasiga o'tadi. (Stoiklar va J.Brunoning ta'siri bo'lgan).

Deizmdan panteizmga o'tadi. Tabiatni gilozoistik tushunadi. Neorganik tabiatga tiriklik xususiyatini qo'shadi. Tabiat his etadi, mukammal tafakkurga ega. Panteizm dini aniq, sodda, tushunarli, har xil bo'lmag'urliklardan xoli dindir;

uning maqsadi tabiatni bilish; ezgulikka xizmat qilish, irimlarni siqib chiqarishdan iborat.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Toland falsafiy qarashlarida xristian cherkovining hurfikrlikka qarshi bo'lgan harakatini qoralaydi. Toland diniy kitoblarni muqaddasligini tanqid qiladi. Uning fikricha, ular oddiy odamlar tomonidan yozilgan va "vahe", ya'ni Olloh ovozini eshitish qobiliyati payg'amdarlarda bo'lgan emas, chunki bu qobiliyat har qanday mantiqiy fikr yuritish doirasidan chetga chiqib ketadi. Toland ilohiy kuch-qudratni, ya'ni xudoni olam bilan birlashtiradi, lekin bu kuchni ratsionallashtirishga harakat qiladi. Xudo tabiatda mavjud, ammo u hech qanday sir-sinoatda emas, aksincha, tabiatning mukammalligi va mo'tadilligida va inson tafakkurida mavjud. Tabiatdagi barcha narsa va hodisalar ilohiy aql asosida yaratilgan va bu aqlni inson o'z tafakkuri orqali bilishi mumkin. Tangrining yaratuvchilik kuchi ham insonning intlektual ijodkorlik kuchi orqali ochiladi. Shuning uchun Toland xristianlik tasavvuridagi mo'jizalarga ishonishni keskin tanqid qiladi. Toland deistik pozitsiyadan panteistik pozitsiyaga o'tib materiya hech qanday tashqi harakatga keltiruvchi kuchga muhtoj emas, deb hisoblaydi. Materiyaning harakatga keltiruvchi kuch – bu aqlga asoslangan ilohiy kuchning faoliyatidir va u materiyaning ichki mohiyatini tashkil qiladi.

David Gartli 1705 yilning 30 avgustida Angliyada cherkov ruhoniysi oilasida tug'ilgan. Kembridj universitetida falsafa va ilohiyotni o'qigan. Keyinchalik Gartli ruhoniylilik martabasidan voz kechib meditsinani o'rganadi va amaliyotchi Shifokor bo'lib ishlay boshlaydi. Shu bilan bir vaqtda falsafa va tabiatshunoslik sohasida ilmiy tatqiqotlar olib boradi. Ko'p yillik izlanishlarining mahsuli bo'lgan o'zining asosiy asari «Inson, uning tuzilishi, burchi va tayanchi haqida mulohazalar»ni 1749 yilda nashr qildiradi. U haqiqatdan ham assotsiativ, ya'ni bir tasavvurning ikkinchi bir tasavvurdan kelib chiqishi haqidagi psixologiyaning asoschilaridan biri hisoblanadi. Gartli 1757 yil 28 avgustda vafot etadi. Gartli insonning turli-tuman psixik faoliyatini o'rganib, ong va xatti-harakatlarning qonuniyatini ochib beruvchi mukammal ta'limot yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu uning psixofiziologik qarashlarining mag'zi, sezgining

tebranuvchan xarakteri haqidagi ta'limotidir. Bunda Gartli Nyuton tomonidan o'rtaga tashlangan sezgi-nurlar ta'siri natijasida ko'z qorachig'i pardasida vujudga keluvchi tebranish mahsulidir, degan fikrga suyanadi. «Bu tebranishlar ko'rish asablarining qattiq tolalari bo'ylab miyaga o'tib, ko'rish sezgisini uyg'otadi». U Nyutonning «Optika»sidagi g'oyalarga tayanib va o'z davri anatomiyasi va fiziologiyasi ma'lumotlaridan kelib chiqib, «sezgilar va harakatlarning takomillashuvi va g'oyalarning vujudga kslishi» sabablarini Yoritib beruvchi talimot yaratdi.

Gartlining fikricha, sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi tashqi predmetlar «dastlab asablarda... so'ng bosh miyada son-sanoqsiz kichik miya zarrachalarining tebranishi»ni uyg'otadi. Gartli fikricha, xuddi shu tebranishlar psixik jarayonlar — sezish, qabul qilish, fikrlashning fiziologik asoslaridir. Ular his-tuyg'u holatlari (lazzat va azob), bevosita va bilvosita xarakterlarning ham asosidir. U yoki bu jarayon oqimining xarakteridagi farqlanishi mana shu tebranishlarning farqiga bog'liq. Tebranishlar bir-birlaridan holatlari (qanchalik kuchli yoki kuchsiz), jinslari (ular kanchalik tez), o'rinlariga nisbatan (bosh miyaning qaysi qismiga ta'sir qilishi) va yo'nalishi jihatidan (ularning asablar orqali miyaga o'tishi bilan) farq qiladi.

Albatta, Gartlining tebranish ta'limoti mexanik xarakterga ega. M.G.Yaroshsvskiy ta'kidlaganidek, «Gartli sxemasi» haqiqiy miya emas, balki tasavvurdagi fiziologik miyadir». Lekin bu g'oya o'sha davrda ruhiy jarayonlarni xolisona talqin qilishga, asab tizimi va miya, ongning moddiy substratlari ekanligini yoritib berishga yo'l ochdi. Insonning hamma aqliy qobiliyatlari — sezish, tasavvur, hayol, e'tibor, tafakkurning haqiqiy o'rni bosh miyadadir, deb ta'kidlaydi Gartli.

Gartlining tebranish ta'limoti birlashgan g'oyalar haqidagi ta'limotni ishlab chiqish uchun asos bo'ldi. Gartli bu ta'limotni asoslashda Lokkning bizning g'oyalarimiz ko'pincha ularda aks etuvchi narsalarning aloqasiga asoslangan tabiiy, qonuniy aloqalaridir, degan fikrlariga tayanadi. Lekin bu aloqalardan tashqari g'oyalarning tasodifiy va odatiy aloqalari ham bor. «Tabiatda bir-biriga bog'lanmagan» bu g'oyalarning yig'indisini Lokk g'oyalar birlashma (assotsiatsiya)si deb ataydi. Shu bilan birga Lokk ularni fikrlarning odatiy oqimi

jarayoniga qarama-qarshi qo'yadi. Uningcha, birlashgan g'oyalarlan yanglishishlar va xurofotlar vujudga kelishi ham mumkin.

Agar Lokk birlashgan g'oyalar bilishning to'siqlari bo'lishi mumkin deb hisoblagan bo'lsa, Yum ularni «Inson tabiatining dastlabki sifatleri» deb hisoblaydi. Bu holatni inson bilimining tushunib bo'lmas xususiyati, deb biladi. Yumning fikricha, g'oyalar uyushmasi — tajribaning g'ayriodatiy oqimiga, Shuningdek, odatlarga bog'liq jarayondir. Lekin Gartli bu fikrga boshqacha yondashadi. Lokkdan kelib chiqqan holda, uning uyushgan aloqalar talqinini chuqurlashtiradi. Ularni tashqi narsalarning sezgi azolari bilan shartlanganligini, uyushgan g'oyalarning qonuniylik xarakterini ochib beradi. Lokk singari Gartli ham «g'oya» tushunchasini keng ma'noda ya'ni ham fikr, ham sezgi obrazlari sifatida tushunadi.

Gartli ta'limoti XVIII asr o'rtalaridagi tabiiy-ilmiy va meditsina bilimlari asosiga qo'yilgan. Uningcha psixik jarayonlar asab tizimi miya faoliyati bilan chambarchas aloqadadir. Gartlining uqtirishicha, tebranishlar o'zida uyushgan g'oyalarni oqibat sifatida mujassamlashtiradi, uyushgan g'oyalar esa tebranishlarga o'zining sababi sifatida qaraydi. Shunday qilib, u tebranishlar va uyushgan g'oyalar ta'limotining mazmuni sababiylik tamoyilini ruhiy hodisalar sohasiga tatbiq qiladi. Demak, Kollinzning «Inson erkinligining falsafiy tadqiqi» asarida o'zining yorqin ifodasini topgan insonga, uning ongi va xatti-harakatlariga sababiylik nuqtai-nazardan yondashish Gartli tomonidan «Inson, uning tuzilishi, burchi haqida mulohazalar» asarida rivojlantirildi va boyitildi.

Uyushgan g'oyalar tamoyili Gartli tomonidan psixik faoliyatning hamma sohalari, ya'ni hissiy, aqliy, Shuuriy, irodaviy sohalariga tatbiq qilinadi. Uyushgan g'oyalarning ilk manbalari sezgining sodda g'oyalari bo'lganligi uchun ham uyushgan g'oyalar ta'limoti eng murakkab psixik jarayonlarni ham eng oddiy jarayonlardan keltirib chikarishga imkoniyat yaratib berardi. Bu asosda esa inson ongi va xatti-harakatlarini boshqarish imkoniyati tug'iladi. Gartli nuqtai-nazaricha, bu yyerda uyushgan g'oyalarning vujudga kelishi qonuni asosida jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'lum axloqiy sifatlarni shakllantirish haqida gap ketayapti.

Keyinchalik Pristli Gartlining «inson ruhi» haqidagi ta'limotini himoya qilib, shunday deb yozadi: «Inson o'zi qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolish uchun boshlang'ich sezgi bilan, inson mavjud bo'lgan sharoitlar ta'siridan boshqa hech narsa talab qilinmaydi». Gartlining bu nazariyasiga baho berib ta'kidlash zarurki, u haqiqatan ham XVIII asrning uyushgan g'oyalar haqidagi ta'limotning cho'qqisidir. Shundan keyin umuman bu ta'limot Gartlining kuchli ta'siri ostida bo'ldi. Psixologiyada hukmron oqimga aylanib, bilimning boshqa sohalari — mantiq, pedagogika, estetikaga ham kirib boradi. Mohiyatan ilmiy ruhda bo'lgan Gartlining bu ta'limoti ma'lum darajada idealizmga ham yon bosardi. Bu narsa avvalo Gartlining o'zining eng asosiy tamoyili-ruhiy jarayonlar asosiga moddiy narsalarni qo'yishdan voz kechishida ifodalangan. Gartli o'z-o'ziga qarshi chiqib Shunday deb yozadi: «... men sezgilar deganda qo'zg'algan tebranishlarni keltirib chikaradi, deb hisoblaganim holda, hech mahal materiya sezish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin degan fikrni tasdiqlashga yoki shunday deb o'ylashga jur'at qilolmayman». Gartlining fikricha, miyadagi tebranishlar bizning hamma sezgilarimiz va g'oyalarimizga hamohang va ularga mos keladi. Shuning uchun biz yo tebranishlarni sezgi va g'oyalarning ko'rsatkichi deb yoki sezgi va g'oyalarni tebranishlarning ko'rsatkichi, deb hisoblashimiz mumkin. Faqat tebranishlar sezgi va g'oyalarni keltirib chiqaradi, deb ta'kidlashimiz mumkin emas. Chunki «tebranishlar tanaga xos hodisadir, sezgi va g'oyalar esa ruhiydir». Ko'rinib turibdiki, Gartli keyinchalik psixofizik parallelizm deb nomlangan nuqtai-nazarni qo'llab-quvvatlaydi. U ruhiy va moddiy hodisalarni bir-biridan farqlaydi. U miya psixikaning moddiy asosi degan fikrdan chekinadi. Gartli materiya va ong munosabati masalasida o'z ta'limotiga «jon va qo'pol tana o'rtasidagi vositachi»si sifatidagi qaraydi alohida «elementar jism» mavjudligi haqidagi farazni aytadi. Bu farazga ko'ra, bizning sezgilarimiz va miyalarimizdagi o'zgarishlar miyadagi o'zgarishlarga faqat elementar jismdagi o'zgarishlarga mos kelishi darajasida mutanosib bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Gartli fikricha, elementar jismda qo'shimcha ayrim alohida birlamchi sifatlar mavjud bo'lishi mumkin. Bular esa sezgi va g'oyalarning manbai bo'lishi mumkin. Bunday holatda tebranishlar psixik

jarayonlarning aynan ko'rsatkichi sifatida qaralmaydi. Shu bilan birga Gartli ta'kidlaydiki, isixikaning bevosita quroli bo'lgan ongning moddiy shartlanganligi, uning miya bilan ichki aloqasi «foydali amaliy nuqtai-nazardan to'g'ridir». Bu yyerda Gartli ongni ilmiy talqin qiluvchi, bizni aqliy qobiliyatlar va psixikaning o'zgarishi bosh miya faoliyatiga bog'liqligiga ishontiruvchi meditsina amaliyotini nazarda tutadi. «Zaharlar, spirtli ichimliklar, narkotik moddalar, asabiy qo'zg'alishlar, boshkd zarba va hokazolar albatta, avval miyani zararlantirib, aqlni yaralaydi. Tozalanish, dam, dori, vaqt va hakoazalar albatta ruhni avvalgi holatiga qaytaradi». Bu yyerda Gartli amaliyotchi shifokor sifatida psixikaga xolisona yondashadi.

Bilish nazariyasi. Gartlining bilish nazariyasi diqqatga sazovordir. Uning bilish nazariyasi asosida Lokkning sensualizmi yotadi. Gartli uni tabiiy-ilmiy bilimlar yutuqlari asosida to'ldiradi va boyitadi. Gartlining eng asosiy g'oyalaridan biri «sezgi g'oyalari — bu shunday elementlarki, ulardan boshqa hamma narsalar vujudga keladi». Hamma boshqa narsalar deganda, Gartli insonning ongida vujudga keluvchi oddiy g'oyalar yoki sezgi g'oilarining birikmasi sifatidagi eng murakkab g'oyalar ham kiradi. Uning fikricha, bu quyosh nurining uni tashkil etuvchi asosiy ranglarga ajralishiga o'xshashdir.

Gartlining ta'kidlashicha, juda murakkab g'oyalar miyada so'zlar orqali vujudga keladi. Til gap bo'laklariga bo'linuvchi nutq, fikrlash bilan mustahkam bog'langan ongda muhim rol o'ynaydi. Kondilyak «Inson ongining kelib chiqishi haqida tajriba» (1746) asarida bayon qilganidek, Gartli ham tilning ong rivojidagi rolini ko'rsatib, nutq shakllarining rang-barangligiga etibor beradi. «So'zlarni to'rt aspektga bo'lmoq mumkin: birinchidan eshitish orqali yuzaga kelgan taassurotlar sifatida; ikkinchidan, nutq a'zolarining faoliyati sifatida; uchinchidan, ko'zga harflar orqali ta'sir qiladigan taassurotlar sifatida; to'rtinchidan, qo'lning yozuv vaqtidagi harakati sifatida». Gartlining fikricha, nutqni egallash jarayoni ham xuddi Shu tartibda yuz beradi, chunki go'daklar avval boshqa odamlarning nutqini qabul qiladilar, so'ng o'zlari gapirishga o'rganadilar, so'ng o'qishga va nihoyat yozishga o'rganadilar.

Gartli ta'limotida nutq amaliyoti g'oyalar uyushmasining muhim zaruratlaridan biridir. U qanday qilib g'oyalar so'zlar uyushmasiga aylanishini, qanday qilib go'daklikda nutq va ongning rivojlanishini, insonning tashqi olamni bilib borishini mukammal izohlab beradi. Natijada Gartli Shundan asosli xulosaga keladi. «So'zlarni ishlatish g'oyalarimizning miqdorini va murakkabligini ancha oshiradi, bu esa bizning aqliy va axloqiy takomillashuvimizning asosiy vositasidir».

Gartli bilishning usuli haqida ham qator muhim g'oyalarni bayon qiladi. U o'z usuliga ta'rif berib, «mulohaza yuritishning to'g'ri usuli shulardan iboratki, bir necha tanlab olingan, yorqin ifodalangan va aniq isbotlangan hodisalar asosida, nazarda tutilayotgan hodisaga ta'sir qiluvchi umumiy qonunlarni aniqlash va ochishdir. Keyin bu qonunlar yordamida boshqa hodisalarni tushuntirish va oldindan hukm chiqarishdir», deydi. Muhimi shundaki, Gartli bu usulni analiz va sintez usuli, ya'ni tahlil qilish va umumlashtirish usuli deb ataydi. O'nlan Nyuton o'z fizik tatqiqotlarida foydalanganligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham tahlil va umumlashtirish usuli Nyutonga, hatto Galileyga borib taqaladi. Bu yyerda gap Yangi tabiatshunoslik metodologiyasi asosida yotuvchi tajribaviy-induktiv va nazariy-deduktiv usullarning birligi haqida ketyapti. Bu metodologiyadan Gartli ham foydalangan. Uning tebranishlar va uyushgan g'oyalar hakidagi ta'limogi bir tomondan, sezgilarni ongning birlamchi elementlari sifatida tahlil qilishga asoslangan, ikkinchi tomondan, psixik faoliyatning umumiy qonunlarini ochishga, ular yordamida inson psixikasining turli-tuman namoyon bo'lishini tushuntirishga qaratilgan. Demak, Gartlining asosiy xizmati shundaki, u birinchilardan bo'lib, tajribaviy induktiv metod va bilishning deduktiv vositalarini psixik hayotni o'rganish uchun tatbiq qilishga harakat qildi. Gartli ta'limotining cheklanganligi birinchi navbatda qarashlarining bir tomonlama va metafizik xarakterligidan, uning ijtimoiy mohiyat ekanligini inkor qilishidan, ong hodisalarini mexanizm ruhida talqin qilishi bilan bog'likdir. Gartli dunyoqarashi o'zining ichki qarama-qarshiligiga ega. Uning psixikani ilmiy ruhla talqin qilishi diniy e'tiqodlari bilan qorishib ketgan. Bu ayniqsa, «Odam, uning tuzilishi, burchi va tayanchlari haqida mulohazalar»ning ikkinchi qismida yaqqol sezilib turadi. Bu qismda ko'proq ilohiy masalalar —

xudoning borligi, uning ajralmas sifatlari, shafqat, rahmdillik, adolat va boshqa «axloqiy kamolotlar» haqida gap ketadi. Shunga qaramay, Gartli falsafa va psixologiya tarixida o‘z asarlari bilan inson ongini talqin qilishni rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Antoni Kollinz 21 iyun 1676 yilda Xestonda tug‘ildi. Iton va Kembridjda o‘qigan. Lokkning ta’siri kuchli bo‘lgan.

Asosiy asarlari: “Hurfikrlik haqida mulohazalar” (1713); “Inson erkining falsafiy tadqiqi” (1715); “Xristianlik dinining asosi va sabablari haqida mulohazalar” (1724). **Kollinz** 1729 yil 13 dekabrda vafot etadi.

Kollinz materialist-faylasuf sifatida shakllangan, bu jon haqidagi ta’limotida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ong – materiya xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarning bir turidir. Ongning moddiy asosi miyadir.

“Inson erkining falsafiy tadqiqi” asarida Kollinz iroda erkinligi haqidagi ta’limotga qarshi chiqadi. Bu asarning g‘oyasi: “Inson zarurat mahsulidir”. Inson harakati 4 turga ajratiladi: g‘oyalarni qabul qilish; hukm chiqarish va fikr bildirish; xohish; va-nihoyat o‘z irodasiga qarab ish yuritish. Shundan kelib chiqqan holda inson doimo nima bilandir shartlanadi. Inson o‘z xohishlarida ham shartlanadi, chunki uning xohishlari uning yashash tarzidan kelib chiqadi. Bizning hamma harakatimiz o‘z boshlang‘ichiga ega, har bir boshlang‘ich esa o‘z sababiga ega bo‘ladi, har bir sabab zaruratdan kelib chiqadi.

Kollinzning deizmi materialistik xususiyatlarga ega, uning ta’limotida ilohiylik zarurat ruhiga yo‘g‘rilgandir. Hamma narsa ma’lum sababga ko‘ra harakat qiladi. Kollinz ijodida hurfikrlik g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Uning asarlarini hurfikrlik apologiyasi deb atash mumkin. Din sohasini erkin fikr orqali tatqiq qilish zarur. Diniy e’tiqodni hamma markaziy masalalarini erkin fikr orqali qayta ko‘rib chiqish zarur. Tarixdan rohiblar ana shu masalalar yuzasidan juda ko‘p bahs olib borganlar. Ular bir-biri bilan hech murosaga kela olmaganlar. Ayniqsa, xudoning tabiatiga oid bahslarda bu yaqqol ko‘rinadi, ya’ni xudo tanaga egami yoki yo‘q, o‘ch oluvchimi, jahldormi yoki yo‘q, unga rahmdillikni, donishmandlikni, ezgulikni xos, deb aytib bo‘ladimi yoki yo‘q. Muqaddas kitoblarga bo‘lgan munosabat ham xuddi

shunday. Kollinz qanday xulosaga keladi: insonlar o'zi yuqoridagi masalalarni erkin o'ylab ko'rib, o'zlari bir qarorga kelishlari shart.

Jozef Pristli 13 mart 1733 yilda Lidsa yaqinidagi Fildxedda tug'iladi. Uning ota-onasining kichik manufakturasi bo'ladi, ular protestant masxabida bo'lganligi uchun, anglikan cherkovidan ajralgan bo'ladi.

Pristli bir qancha boshlang'ich maktablarda ta'lim oladi. Qadimgi va yevropa tillarini ishtiyoq bilan o'rganadi. Ota-onasi uni ruhoniy martabasiga tayyorlaydilar. 1752 yilda Pristli Deventridagi ilohiy akademiyaga o'qishga kiradi. O'qishni tugatgach Nidxemdagi cherkovga ruhoniy Yordamchisi lavozimiga tayinlanadi. So'ngra Nantvichdagi cherkovning ruhoniysi bo'ladi va o'zining diniy maktabini yaratadi.

1761 yilda Pristlini Uoringtondagi ilohiy akademiyaga o'qituvchilik lavozimiga chaqiradilar. U bu yyerda ilmiy, pedagogik va adabiy faoliyatini rivojlantiradi. 1766 yilda elektr sohasidagi tadqiqotlari uchun Qirollik jamiyatining a'zosi bo'ladi. 1767 yilda Pristli Lidsga ko'chib keladi. Bu yyerda ilmiy faoliyatini faol davom ettiradi. Shu yerda dastlabki siyosiy faoliyati ham boshlanadi. Keyingi yillarda Pristli lord Shelburnning kotibi bo'lib, u bilan birga boshqa mamlakatlarga sayohatga chiqib, kimyo sohasidagi o'z tadqiqotlarini davom ettiradi. Falsafiy asarlar yozadi. Pristli fotosintez hodisasini kashf qiladi (1771); xlorli vodorodni, kislorodni va ammiakni (177-1774) ochadi.

1772 yilda Pristli fransuz akademiyasiga muxojir a'zo bo'lib saylanadi. 1780 yilda Peterburg Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi bo'ladi. 1780 yilda Pristli Birmingemga ko'chib o'tadi. Bu yyerda u eksperimentchi-olim, tabiiy bilimlarning tarixchisi va nazariyotchisi, faylasuf-materialist va ilg'or faol ijtimoyotchi sifatida faoliyat yuritadi. U ko'pgina mashhur olimlar bilan xat yozishadi, jumladan, D.Uott, B.Franklin, E.Darvin, R.Prays va T.Kuper va boshqalar.

1775-1783 yillarda Shimoliy Amerikada urush boshlanishi bilan amerika xalqining manfaatlarini himoya qila boshlaydi. 1789 yilda Fransiyada inqilob boshlanganda Pristli Shu zahotiyiq uning tarafdoriga aylanadi. 1791 yilda Bastiliyaning olinishining 2 yillik tantanalarida Pristli nutq so'zlaydi. Dushmanlari

bundan foydalanib Pristlining Birmingemdagi xovlisini va laboratoriyasini kunfayakun qiladilar. Shu sababga ko'ra Pristli 1794 yilda Londonni butunlay tark etadi va AQSHga oilasi bilan ko'chib ketadi va umrining oxirigi yillarigacha shu yerda yashaydi. Pristli 1804 yilda 6 fevralda vafot etadi.

Pristli falsafiy qarashlarida – F.Bekon va T.Gobbs an'analarini davom ettirgan. Deist sifatida fransuz materialistlarining ateizmini tanqid qilib chiqqan. Pristlining fikricha, butun materiya ko'lamlilik, zichlik, o'tkazmaslik xossalari ega bo'lib, uning xususiyatlari tortish va itarish kuchlarining mavjudligi bilan belgilanadi.

Insonning sezgilari va tafakkuri – o'sha materiyaning boshqacha tuzilishi natijasidir. Lokkning dualizmini Pristli mexanitsizm pozitsiyalaridan turib rad etadi. Masalan, g'oyalarning assotsiatsiyalarini u vibratsiyalar mexanizmi bilan izohlashga urinib ko'rdi. Pristli eksperiment bilan nazariyani birga qo'shishini talab etadi. U gipoteza, analogiya shunga o'xshash masalalarga ko'p e'tibor bergan edi.

Sotsiologiyada determinizm tamoyilini qattiq himoya qiladi fatalizmga qarshi chiqadi. Pristli evdemonizm axloqining tarafdori bo'ladi. Uning fikricha, eng katta Shaxsiy baxtni boshqa kishilarning baxti bilan siqdirish mumkin.

Jorj Berkli 1685 yilda ingliz dvoryan oilasida tug'ilgan (Irlandiya). 15 yoshida kollejga kirgan (Muqaddas Troitsa, Dublin universitetida o'qiydi). 1704 yilda san'atshunoslik bakalavr unvoniga ega bo'ladi. 1707 yilda o'qigan kollejida o'qituvchilik qiladi. Falsafani o'rganadi, falsafiy kundaliklar yozadi. Bu bo'lajak falsafiy sistemasiga ilk qoramalar edi.

Asarlari: "Yangi ko'rish nazariyasi tajriba" (1709). Shu yili anglikan cherkovi dyakoni lavozimiga tayinlanadi. "Inson bilimlari asosi haqida traktat" (1710). "Gilos va Filonus o'rtasidagi uch suhbat" (1713). "Alsifron" (1732) – xristian dini himoyasiga bag'ishlangan. "Analitik" (1734); "Seyris" (1744).

1713 yilda uzoq sayohatga chiqadi. Fransiya, Italiya va Shimoliy Amerikada bir necha yil yashaydi. Nyuportdagi Rot Aylend shahrida missionerlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Kollej qurulishiga davlat tomonidan mablag' berilmaganidan keyin Angliyaga qaytib keladi (1731).

1734 yilda anglikan cherkovi episkopi lavozimiga tayinlanadi. Umrining oxiriga qadar Janubiy Irlandiyaning Klayn shahrida yashaydi. 1752 yilda Oksford keladi. 1753 yilda, 68 yoshida vafot etadi.

Birinchi maqsadi materializmni inkor qilib, immaterializmni asoslashdan iborat. Materializm Berklining raqibi; uni tanqid qilishda falsafiy vositalardan foydalanadi. Vositalari o'ta nominalizm va idealistik sensualizmdan iborat.

Lokk ishlab chiqqan mavhumlik nazariyasi konseptualizm deb atalardi. Lokk fikriga ko'ra, mavhum tushunchalar fikriy umumlashtirish orqali hosil qilinadi. Yakka predmetlarda qandaydir umumiylik bor, shu asosda tafakkurimiz "g'oyalar"ni ishlab chiqadi. Ana shu konseptualizm o'ta nominalizmdan farq qiladi, ya'ni umumiy tushunchalar real asosga ega emas, faqat yakka jismlar mavjud.

Berkli umumiy tushunchalarning ob'ektivligini tan oladi. O'ta nominalizm – umumiy tushunchalar nomlarda mavjud, deydi. ***“Nimaiki mavjud bo'lsa – u yagonadir!”***, deydi. Umumiylik – umumlashgan yaqqollikning yagona timsolidir (Masalan, qandaydir uchburchak teoremasini isbotlayotganimizda, biz boshqa uchburchaklarni ham tasavvurimizga keltiramiz). Umumiy g'oyalarning mavjudligini shunday holda tan olib Berkli konkret narsalarning tasavvurini tushungan.

Berkli bilishdagi hissiy timsoliy tomon mutlaqlashtiriladi. Hamma bilish faoliyati hissiy-tajriba darajasiga olib keladi. Mavhum umumiy g'oyalar yakkalikda, alohidalikda ob'ektiv mavjudligini qat'iyankor inkor qiladi.

Berkli mavhum, tushunchaviy tafakkur mavjudligini inkor qiladi. So'z abstrakt, umumiy g'oyalar belgisi emas. Shuning uchun ularni o'rganish befoyda. U ayniqsa, falsafadan materiya tushunchasini olib tashlash kerakligini aytadi. "Traktat"ida shu masalaga katta o'rin ajaratadi. Materiyada ziddiyat bor, tushunchaviylik, mavhumlik mujassamlashgan. Uni inkor qilish insoniyatga hech qanday zarar keltirmaydi. Ateistlarga bu tushuncha kerak, chunki ular o'z xudosizliklarini Shu asosda isbotlaydilar.

Berkli birlamchi va ikkilamchi sifatlarni sub'ektivlashtirishga harakat qiladi. (Lokk: birlamchi sifatlarni – ko'lam, Shakl, harakat, sokinlik, son, zichlik – ular ob'ektiv mavjud. Hissiyot orqali qabul qilinadi. Ikkilamchi sifatlarni – rang, ta'm, hid va h.k. Ikkilamchi sifatlarning g'oyalari bizning ongimizda in'ikos etadi).

Berkli Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlarni to'g'risidagi nazariyasini qayta ko'rib chiqib, o'ziga xos ravishda talqin qiladi. “Yangi ko'rish nazariyasi tajribasi”da ko'rish sezgisi sub'ektiv xarakterga ega. Ko'rish ruhdan tashqari mavjud bo'la olmaydi. Ko'rishni paypaslashdan ajratadi; ko'rish siypalashdan kelib chiqadi. Ko'rish hissi narsalarning realligini isbotlay olmaydi. Ko'rish g'oyalar belgisidir. Hamma ko'rinuvchi narsalar ruhdan mavjud, hali makonni egallamagan.

Berkli “Inson bilimi asoslari haqidagi traktat” asarida materialistik bilish nazariyasini fenomenolistik (hodisalarni) bilishga aylantiradi. Bilish bevosita ob'ekt bilan munosabatda bo'lmaydi, balki hissiyotlar, g'oyalar yig'indisi orqali mavjud. Birlamchi sifatlarni ikkilamchi sifatlarni bilan aynanlashtiriladi. Ikkilamchi sifatlarni nisbiy va o'zgaruvchan xislatlarga ega. Narsa xususiyatlari hissiyotlar bilan aynan - bu birinchidan; ikkinchidan, hissiyot yagona reallikdir, narsalar esa hissiyotlar majmuasidir, shuning uchun ularni mavhumlashtirish bema'nilikdir

“Mavjudlik, demak – qabul qilinganlikdir!”

Berkli narsalarning realligini, butunlay inkor qilmaydi, chunki bu yo'l solipsizmga olib kelardi. Berkli bundan qochadi. Berkli narsalarning uzluksiz mavjudligi haqida gapiradi; ya'ni bizning ruhimiz bu narsalarni qabul qilmayotganda, boshqa ruhlar uni qabul qilayotgan bo'ladi. Demak, narsalar ruhlar majmuasidan tashqarida mavjud bo'la olmaydi.

Berkli narsalarning realligi bir vaqtning o'zida, ko'pgina odamlar orqali qabul qilinadi. Shu asosda u haqiqiy ob'ekt bilan tasavvurdagi ob'ekt o'rtasidagi farqni ochib berishga harakat qiladi. Masalan, ko'pgina odamlar tomonidan qabul qilinayotgan Yevangliya mo'jizalari, uni realligidan dalolat beradi.

Berkli o'ta sub'ektivizmdan qochishga harakat qiladi; ya'ni hamma qabul qilinuvchi sifatlarni “g'oya” yoki “g'oyalar yig'indisidan” iborat, ular ongda yoki

ruhda, yoki ruh majmuasida mavjud. Berkli xudosi yaratuvchi va nazorat qiluvchidir. Hamma narsalar xudo tafakkurida mavjud, u esa hamma joyda mavjud.

Berkli “Gilos va Filonus o‘rtasida uch suhbat” asarida shular haqida gapiradi. Men tomondan qabul qilinadigan narsalar mening ruhimdan tashqarida mavjud. Shuning uchun ular boshqa ruhda mavjud bo‘lishi zarur, ana shu ruhning irodasi orqali menga namoyon bo‘ladi. “Xulosa qilish mumkinki, har bir daqiqada u mendagi qabul qiluvchi hissiy taassurotlarni uyg‘otadi”. Shuning uchun ularning yaratuvchi beqiyos donishmand, ulkan va mehrlidir. Shunday qilib, Berkli xudoni mavjudligini isbotlaydi. Bunday Yangi isbotning mazmuni: xudodan hissiy qabul qilinuvchi narsalarga emas, balki hissiy narsalardan xudoga boriladi. “Hissiy narsalar real mavjud; ular real bo‘lsa, ruh orqali qabul qilinadi; shuning uchun cheksiz ruh yoki xudo mavjud”. Berkli shu yo‘l bilan xristianlik dinini falsafa bilan yaqinlashtirishga harakat qiladi.

“Fikrlovchi narsalar yoki jonlar faoliyatli mavjudotlardir. **“Mavjud bo‘lish – demak, qabul qilinishdir”**, degan iborani jonga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Qabul qilinuvchi g‘oyalar sifatida aql deb nomlanadi. Ularni keltirib uni qabul qilish funksiyasidan bilish mumkin. G‘oya passiv, inert bo‘lsa, ruh esa faol, harakatchandir. “Jon”, “ruh”, “ruhiy substansiya” so‘zlari “real narsalarni” ifodalaydi. Inson joni tanaga ega emas, abadiydir. Berkli moddiy substansiya tushunchasini inkor etib, ruhiy substansiya tushunchasini qoldiradi.

David Yum 1711 yilda Shotlandiyalik dvoryan oilasida tug‘ilgan. Edinburg universitetini tugatgach, Fransiya 3 yillik sayohatga chiqadi 1734-1737 yillarda, tijorat ishlari bilan shug‘ullanadi.

Asosiy falsafiy asarini yozadi: “Inson tabiati haqida traktat”, 1-2 kitoblari “Bilim haqida” va “Affektlar haqida” (1739), 3-kitob “Axloq haqida” (1740) yilda nashr qilinadi. Bu asar uncha muvaffaqiyat qozonmaydi.

“Inson bilimi haqida tadqiqot” (1748).

“Axloq asoslari haqida tadqiqot” (1752). Taxminan shu davrda “Tabiiy din haqida muloqot” (O‘limidan so‘ng nashr qilinadi).

Yum siyosiy iqtisodga bag'ishlangan esse yozadi; Adam Smit bilan do'stlashadi.

Edinburg advokatlar jamiyatida kutubxonachi bo'lib ishlaydi; Angliya tarixiga oid tarixiy materiallar yig'adi; 8 jildlik "Angliya tarixini yozadi" – bunda u buyuk Shaxslarning ruhiy kechinmalariga diqqat e'tiborini qaratadi; viga va tori partiyalarini kelishtirishga harakat qiladi.

"Tabiiy din tarixi" (1757).

1763 yilda Fransiya (Parij) bilan diplomatik faoliyatda fransuz ma'rifatchilari bilan tanishadi. J.J.Russo bilan do'stlashadi.

1767-1768 yillarda Londonda davlat kotibi yordamchisi bo'lib ishlaydi.

1776 yilda Edinburgda vafot etadi.

Yum agnostitsizmi. "Traktat"ning kirish qismida fanlarning asosi mustahkam emasligini gapiradi; sababi "inson haqidagi fan" hali yetarli rivojlanmagan. Bilim manbaini Yum sensualistik pozitsiyadan turib hal qiladi.

Bilim tajribasi qabul qilishdan boshlanadi (Lokk va Berklining "g'oyalar"i bilan o'xshash). Tajriba strukturasi *taassurot* va *g'oyalardan*. G'oyalar taassurotning nushasidir. Yum Lokkni qabul qilishning hamma turlarini g'oyalarga kiritib yuborganligini tanqid qiladi.

Yum g'oyalarni *sodda g'oyalar*, ya'ni bo'linmaydigan g'oyalar; *murakkab g'oyalar* – moduslar, substansiya va munosabatlar. Sodda g'oyalar qabul qilishdan kelib chiqadi va ularga mos keladi.

Yum taassurotlarni *hissiy* va *refleksiv* taassurotlarga bo'ladi; hissiy taassurotlarning kelib chiqishini faylasuflar emas anatomlar o'rganishi kerak. Refleksiv taassurotlar ba'zi his qilish g'oyalarini inson tafakkuriga ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Masalan: qoniqish va izzat g'oyalari. Shunday qilib, "xohish", "ijirg'anish", "umid", "qo'rquv" va h.k. taassurotlari kelib chiqadi, ular ikkilamchi xususiyatga ega.

Hamma taassurotlar tafakkurda, g'oyada xotira va tasavvur yordamida qayta ishlanadi, saqlanib qoladi. Xotira uchun g'oyalarning ketma-ketlik tartibini eslab qolishning o'zi kifoya qiladi. Tasavvur g'oyalarni erkin harakatlantiradi. Ana Shu

tasavvurlardan yoki g'oya xotiralaridan tizim hosil qilamiz, deb yozadi Yum. Bu ichki qabul qilishdan yoki tashqi hissiyotdan paydo bo'lgan, bularni biz reallik deb ataymiz.

Demak, Yum fikricha, sub'ekt tajribasining o'zaro bog'liq elementlarining tizimi yagona reallikni tashkil etadi. Faylasufning vazifasi qabul qilishning psixologik mexanizmi detallarini ochib berishdan iborat.

Assotsiativ bog'liqlik turlari. Inson tabiatida muhim xususiyat yoki "tamoyil" mavjud.

Bu "tamoyil" – *assotsiatsiya* tamoyilidir, ya'ni g'oyalar munosabati.

Yum fikricha, 3 ta assotsiatsiya mavjud: o'xshashligiga qarab; makon va zamon o'rtasidagi munosabatga qarab; keng tarqalgan sababiyat assotsiatsiyasi.

O'xshashlik asossiyasi – do'stimizning surati, u to'g'risidagi g'oyalarni jonlantirishi mumkin, lekin bu munosabat ba'zan xatoliklarga olib kelishi mumkin;

Makon va zamon assotsiatsiyasi – uydun bir muncha uzoqroqda bo'lgandagi qarindoshlar to'g'risidagi fikrlar, juda uzoqda bo'lganga nisbatan jonliroqdir. Sabab-oqibat munosabatlari.

Munosabatlar tasnifi. Assotsiatsiyalar – falsafiy munosabatlardir. Falsafiy munosabatlar o'ziga xos xususiyatlardir, vaziyat va holatning mazmuni, tafakkurda g'oyalarning solishtirilishidir.

Bunday munosabatlar 7 ta: ulardan 4 tasi – o'xshashlik bo'yicha; ziddiyat, sifat; miqdor darajasiga ko'ra – ular haqiqiy bilimning predmetidir – ular qat'iy mavhum muhokama orqali olinadi; 3 tasi – ayniyat; makon va zamon; imkoniy – tajriba orqali bilinadi.

Yum matematika – yagona, ziddiyatsiz, haqiqiy fandir, uning xulosalari aprior va analitik, tahliliy xususiyatga egadir. Boshqa fanlar taxminiy, muammoviy xarakterga ega. Munosabatlar ongning faol qismidir.

Mavhumlik nazariyasi. Substansiya g'oyasini hissiy taassurotlardan yoki reflektiv (ichki) taassurotlardan keltirib chiqarish mumkinmi – yo'q. Substansiya g'oya – sodda g'oyalar yig'indisidir; xotirada nom berilgan tasavvurlar yig'indisidir. Substansiya doimiy o'zgarmay qolaveradi, lekin uning birlamchi

taassurotlari o'zgaradi. Shunday qilib, *substansiya* – tasavvurning qulay fiksiyasidir.

Yum moddiy va ma'naviy substansiyani ham inkor qiladi. G'oyalar taassurotlarning nushasi sifatida konkret bo'lishi zarur. Yum fikricha, o'ziga xos g'oya, umumiy nom berilgach, taassurotlar hosil qilishi mumkin. So'z chaqiruvchi signal vazifasini bajaradi. Tafakkur "cheksizlik" g'oyasiga ega bo'la olmaydi.

Makon talqini. Yum fikricha, bo'sh makon tushunchasini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ko'lam g'oyasi tafakkurda uyg'onadi, taassurotning g'oyaviy nushasidir. Ko'lam g'oyasini – biz ko'rish va paypaslash hislari orqali olamiz, ular tafakkurda mavjud. Ikkilamchi sifatlar iztirob va lazzatlanish holatlaridir.

Mavjudlik – ob'ektiv zaruriy xususiyat emas. Undan voz kechish zarur. Mavjudlik narsalarning borligi bilan aynan mos keladi. XX asr faylasufi B.Rassel Yumning shu fikrini quvvatlaydi.

Sababiyat g'oyasini shakllanish xususiyati. Sababiyatni tahlil qilish Yum nazariy falsafasining markazini tashkil qiladi. Sababiyat g'oyasi ob'ektlar o'rtasidagi o'ziga xos munosabatdan kelib chiqadi.

Birinchidan, makon va zamon o'rtasidagi munosabat – hech bir ob'ekt xuddi Shu makon va zamondan tashqarida harakat qila olmaydi. Ikkinchidan, sababiyat g'oyasi, kelib chiqishlik sababini albatta taqozo qiladi. "Agar sabab harakat bilan aynan, vaqtda bir-biriga teng bo'lsa, ketma-ketlik mavjud bo'lmaydi, hamma narsa bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi kerak bo'ladi". Yum fikricha, sabab g'arakatni tug'diradi. Yum sababiyatni ob'ektivligini qat'iyan inkor qiladi. Yum eng zaruriy munosabat, sabab va harakat o'rtasidagi bog'liqlik zaruriy munosabatdir – bu faylasuf Yumning falsafaga qo'shgan hissasidir. Yum zaruratni psixologik kelib chiqishini aniqlab berdi.

Induksiya dunyoning birligiga ishonch asosida quriladi, buni esa isbot qilib bo'lmaydi. Yum kelajak o'tmishga o'xshaydi, degan fikr asossiz, bu bizni odatimizdan, ya'ni o'rganib qolganimizdan dalolat beradi. Yum asoslash muammosini o'rtaga tashlaydi.

Yum bilishda e'tiqodning rolini tadqiq qilishga diqqatini qaratadi. Yumning bilishdagi "e'tiqod" diniy e'tiqoddan butunlay farq qiladi. E'tiqod "tafakkur faoliyati" natijasi emas, balki hissiyot taassurotlarini jonlantirish natijasidir. Bu yyerda e'tiqod u yoki bu taassurotni uyg'otadigan yorqin g'oyadir. E'tiqodning manbai odatlardir. Odatlarning kelib chiqish tabiatini bilim bo'lmaydi. Odat Yum fikricha, taassurotlarning ko'p marta qaytarilishidan kelib chiqadi, tajribamizga qat'iylik tusini beradi. Yum "bir xil Sharoitda bo'lgan bir xil ob'ektlar, bir harakatni keltirib chiqaradi".

Insonning hamma bilimi "bilim", "isbot" va "ehtimollik"dan iborat. Yumni fanning haqiqatligi kam qiziqtiradi. Bilim e'tiqodning o'ziga xos, qalbda g'oyalarning solishtirilishi natijasida paydo bo'ladi. Tasodif real va ob'ektiv emas; sababni bilmaslik natijasidir. Yum xudoning dastlabki asosiy sabakorlik xususiyatini inkor qiladi. "G'oyalar va taassurotlar"ning odatiy bog'lanishi, doimiy ularni bir-biriga o'tib turishi va ularni majburiylik xislarini uyg'otishi, Yum fikricha, "zarurat" g'oyasini tug'diradi. "Zarurat" ob'ektda emas, tafakkurda mavjud bo'lgan hodisadir. Sabab hech qanday kuchga ega emas. Oqibatni keltirib chiqarishini biz nao'orat qila olmaymiz. Shuning uchun, konkret sharoitni tadqiq qilish ehtiyoji yo'qoladi.

Yum sababning ikki ta'rifini beradi: 1) sabab – ob'ekt sifatida mavjud, u keyingi ob'ektdan oldin va uning o'rtasida keladi, jumladan, hamma ob'ektlar birinchisiga o'xshaydi, ya'ni bir-biridan keyin kelishda bir xil munosabatga egalar. 2) sabab bu ob'ektivlikdir, undan oldin keluvchining ham ob'ektivdir, u bilan shunday bog'langanki, ulardan birining g'oyasini undan keyingisini shakllanish g'oyasini tafakkur aniqlaydi, taassurot esa keyingisining jonliroq g'oyasini belgilaydi.

Yum ruhiy substansiyaning mavjudligini inkor qiladi, xuddi shunday moddiy substansiya ham mavjud emas, ular o'rtasidagi munosabat ham yo'q.. Yumda skeptitsizm hayotiy pozitsiya sifatida namoyon bo'ladi. Yum falsafasi uning fikriga ko'ra, dinga nisbatan neytral pozitsiyada turadi.

Yum “Traktati”ning 2-kitobi affektlarga bag‘ishlangan. Affektlar insonni boshqaradi. Aql affektning engib o‘tolmaydi; affekt va aql o‘rtasida kurash Yo‘q. Aql affektning “xizmatkori”dir. Affekt – “bu xotirjam aqlidir!” “Affekt – bu kuchli, his etiluvchi ruhiyatimiz emotsiyasidir, u (ya’ni affekt) bizning ko‘z o‘ngimizda ezgulik yoki yovuzlik sodir bo‘lsa yoki qandaydir ob’ekt o‘z botinimizga murojaat qilishni uyg‘otadi”. Shunday qilib, affektlar – bu emotsiyalardir. Ular ob’ekt ta’sirida paydo bo‘ladi. Ob’ektlar esa – bu taassurotlardir. Affektlar ham tashqi taassurotlar va refleksiv taassurotlarga bo‘linadi. Affektlar sokin (go‘zallik hissiyoti yoki xunuklik hissiyoti); jo‘shqin (muhabbat, nafrat, g‘amginlik, hursandchilik) bo‘ladi. Ziddiyatli taassurotlar ziddiyatli affektlar bilan bog‘liq; masalan, go‘zallik – g‘urur bilan bog‘lanadi; xunuklik – tushkunlik bilan. Estetika Yum fikricha, emotsiyaning psixologik bayon qilib berishining bir turidir.

Simpatiya affekti Yumda katta o‘rin enallaydi. Birovlarning iztirobi bizlarda rahimdillikni chaqirsa ham, lekin o‘zimizning baxtlilik, muvafaqqiyatlik hissiyotimizni kuchaytiradi. Affektlar inson qalbi oynasida in’ikos qiladi, simpatiya esa hamma affektlardan Yorqinrog‘idir.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jon Lokk va Spinoza ta’limotlarining ingliz falsafasiga ta’siri qanday bo‘lgan?
2. Jon Tollandning hurfikrligi qanday xususiyatga ega bo‘lgan?
3. Agnostitsizm nima?
4. «Men bor, dunyo bor» - ta’riflab bering.

Adabiyotlar:

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р., Қобулниёзова Г., Рузматова Г. Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси.. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Пўлатова Д., Рузматова Г. Фарб фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Premier-print, 2011.